ITLARDA YIRINGLI JAROHATLARNI DAVOLASHDA PROBIOTIK VA ANTIBIOTIKLARNI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Yuldasheva M.K., assistent,
Haydarova S.A., assistant v.f.f.d.(phD),
Xolmurodov D.Ch. magistrant
SamDVMChBU

Annotatsiya. *Maqolada itlarda uchraydigan yiringli jarohatlarni davolashda antibiotik terapiyasini probiotik preparatlar bilan birgalikda qo‘llashning klinik va morfologik samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari kompleks davolash usuli jarohatlarning tezroq bitishini, yallig‘lanish jarayonining kamayishini hamda regenerativ jarayonlarning faollashishini ta’minlashini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *itlar, yiringli jarohat, antibiotiklar, probiotiklar, regeneratsiya, jarohat bitishi.*

imrconf.com

Kirish

Veterinariya amaliyotida itlar orasida yiringli jarohatlar jarrohlik kasalliklarining muhim qismini tashkil etadi. Mexanik shikastlanish, operatsion jarohatlar hamda ikkilamchi infeksiya bilan asoratlangan ochiq mexanik jarohatlar ko‘pincha yiringli yallig‘lanish jarayoni bilan kechadi [1, 4,7].

An’anaviy davolash usullarida asosiy e’tibor antibakterial preparatlarni qo‘llashga qaratilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning keng tarqalishi davolash samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sababli yiringli jarohatlarni davolashda probiotik preparatlarni qo‘llash masalasi dolzarb hisoblanadi [2,6].

Probiotik mikroorganizmlar shtammlarining antibakterial faolligi ularning spirtlar, vodorod peroksidi, sut, sirka va boshqa organik kislotalarni ishlab chiqarish qobiliyatiga, shuningdek, lizotsim va keng ta'sir doirasiga ega antibiotiklarni (laktolin, nizsin, atsidofilin, laktotsid va boshqalar) sintez qilish xususiyatiga hamda adgeziya retseptorlari va ozuqaviy moddalarga faol raqobat qilishga asoslangan [3].

Tadqiqot maqsadi

Itlarda yiringli jarohatlarni davolashda antibiotiklar bilan birgalikda probiotik preparatlarni qo‘llashning klinik va morfologik samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot yiringli jarohatlari mavjud bo‘lgan itlar ustida olib borildi. Hayvonlar ikki guruhga bo‘lindi:

- Nazorat guruhi – an'anaviy jarrohlik ishlovi va antibiotik terapiyasi bilan davolandi;
- Tajriba guruhi – antibiotik terapiyasi bilan bir qatorda probiotik preparatlar qo‘llandi.


Davolash jarayonida jarohat yuzasining tozalanish tezligi, yiring ajralish miqdori, granulyatsiya to‘qimasining shakllanishi hamda umumiy klinik holat dinamikada baholandi. Ayrim holatlarda gistologik tekshiruvlar o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari

Olingan natijalar probiotik qo‘llangan guruhda jarohat yuzasining nekrotik to‘qimalardan tozalanishi 20–25 % ga tezroq kechgani, yiringli ajralmalar 1,6 baravar ko‘proq kamaygani va granulyatsiya to‘qimasining shakllanishi 25 % dan ortiq faollashganini ko‘rsatdi. Shuningdek, tajriba guruhidagi itlarda jarohatlarning to‘liq bitish muddati o‘rtacha 22–24 % ga qisqardi hamda ikkilamchi infeksiya va yallig‘lanish asoratlari rivojlanish chastotasi 10 % dan ortiq kamaydi.

imrconf.com

Gistologik tekshiruvlar probiotiklar ta’sirida fibroblastlar proliferatsiyasi kuchayganini, kollagen tolalarining nisbatan tartibli joylashganini va yallig‘lanish hujayralari infiltratsiyasi kamayganini tasdiqladi. Bu holatlar regenerativ jarayonlarning faollashganidan dalolat berdi.



Olingan natijalar probiotiklarning patogen mikrofloraga antagonistik ta’sir ko‘rsatishi, mahalliy immunitetni faollashtirishi hamda to‘qimalar regeneratsiyasini rag‘batlantirishi bilan izohlanadi. Antibiotiklar bilan kompleks qo‘llanganda probiotiklar davolash samaradorligini oshiradi va yallig‘lanish jarayonining cho‘zilib ketishining oldini oladi.

Xulosa

Itlarda yiringli jarohatlarni davolashda antibiotik va probiotik preparatlarni birgalikda qo‘llash yuqori klinik samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv jarohatlarning tezroq bitishini ta’minlab, asoratlar va retsidivlar rivojlanish xavfini kamaytiradi. Kompleks davolash usulini veterinariya amaliyotida keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Веремей Э. И., Лакисов В. М. Травматологическая помощь в собаководстве. – М.: Агропромиздат, 1990.
2. Вахитов Р. Р. Гнойно-некротические процессы у животных и пути их коррекции. – Казань, 2015.
3. Ноздрин Г. А., Иванова А. Б., Ноздрин А. Г. Теоретические и практические основы применения пробиотиков на основе бацилл в

imrconf.com

ветеринарии //Вестник НГАУ (Новосибирский государственный аграрный университет). – 2011. – №. 5. – С. 87-95.

4. Кузнецов А. Ф. Ветеринарная хирургия. – СПб.: Лань, 2012.

5. Третьяков А. А. Хирургические болезни животных. – М.: Колос, 2008.

6. Quinn P. J., Markey B. K. Veterinary Microbiology and Microbial Disease. – Wiley-Blackwell, 2011.

7. Greene C. E. Infectious Diseases of the Dog and Cat. – Elsevier, 2012.

imrconf.com